O‘SMIRLARDA MEHR-OQIBAT FAZILATINI TARBIYALASH: SOTSIOPEDAGOGIK DISKURS

Quronov M., IMTI direktor o‘rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: tezisda o‘smir yoshlarda mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish, ular o‘rtasida jinoyatchilikni erta oldini olish ijtimoiy pedagogik zarurat ekanligi, bu borada olib borilgan izlanishlar va tajriba-sinov ishlari natijalari atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jinoyatchilik, profilaktika, profilaktik tarbiya, preventiv tarbiya, shaxsning dunyoqarashi, qiziqishlari, o‘zaro munosabati, uning salbiy sifatlari, ijtimoiy muhit, tarbiya metodlari, milliy tarbiya, mehr, xushmuomalalik, e’tibor, qo‘llab-quvvatlash, tuyg‘ular deprivatsiyasi.

Аннотация: тезисы расскрывают формирование у подросков любви к родителям, социально-педагогическая необходимост проведение профилак-тических работ среди молодёжи с раннего возраста, резултаты исследователских и эксперементалных работ, направленных решения этих задач.

Ключевые слова: преступление, профилактика, профилактическое воспитание, превентивное воспитание, мировозрение, интересы, отношение, отрицателные качества личности, социалный фактор, методы воспитания, национальное воспитание, любов к детям, вежливость, внимательность, укреплённость, депривация.

Abstract: the theses reveal the formation of love for parents in adolescents, the socio-pedagogical need to carry out preventive work among young people from an early age, the results of research and experimental work aimed at solving these problems.

Key words: crime, prevention, preventive education, preventive education, worldview, interests, attitude, negative personality traits, social factor, methods of education, national education, love for children, politeness, attentiveness, fortification, deprivation.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jinoyatchilikka qarshi kurashni uning oldini olishdan boshlash kerak deydilar. Bu bejiz emas va shu sababli har bir ota-ona jinoyatchilikning erta profilaktikasida ma’naviyat, tarbiyaning tutgan o‘rnini bilishi zarur. Ana shunda har birimizning “Mening mahallamda jinoyat sodir bo‘lmasligi kerak”, degan qat’iy qarorimiz mamlakat miqyosidagi erta profilaktikaning dasturulamaliga aylanadi.

Ana shu maqsadda tadqiqot guruhi tomonidan jinoyatchilikning erta oldini olishda ota-onalarning rolini oshirish bo‘yicha ishlar amalga oshirildi. Tadqiqot va targ‘ibot ishlari Buxoro viloyatining Jondor, Shofirkon va G‘ijduvon tumanlarida ham o‘tkazildi. Ushbu ma’rifiy “yurish”ga markaz huzuridagi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zolari, Buxoro Davlat universitetining psixolog, sotsiolog, pedagog olimlari jalb etildi.

Jinoyatning sabablari “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da bor. Unda uchta sabab keltiriladi: “... birinchidan, shaxsning o‘zi, uning dunyoqarashi, qiziqishlari, jamiyat va davlatga, yon-atrofidagi kishilar va oilaga munosabati, unda salbiy sifatlarning shakllanishi va kuchayishi; ikkinchidan – shaxs tarbiyalangan, voyaga yetgan oilaviy va ijtimoiy muhit; uchinchidan – jinoyat sodir etilgan vaqtdagi sharoit, vaziyatga e’tibor beriladi”[1], deyiladi. Keltirilgan uch sababning ikkitasi ota-

[1] Jinoyat. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2002. 604-bet.

onalarga, bizga bog‘liq:

1) “shaxsning dunyoqarashi”, “qiziqishlari”, “jamiyat va davlatga, yon-atrofidagi kishilar va oilaga munosabati”, “unda salbiy sifatlarning shakllanishi va kuchayishi”;

2) “shaxs tarbiyalangan, voyaga yetgan oilaviy va ijtimoiy muhit”. Ikki sabab bitta so‘zga – TARBIYaga jo bo‘ladi. Ha. Juda ko‘p aytilayotgan, lekin yana takror-takror gapirishga bizni majbur qilayotgan so‘z bu.

Dastlab Jondor tuman mahallalari xonadonlarida bo‘lib, aholi bilan suhbatlashib, jinoyatchilikning ma’naviy-ma’rifiy sabablari o‘rganildi. 24 noyabr kuni tumanning 12 maktabida “Avlodlar uchrashuvi” tashkil etildi. Ko‘pni ko‘rgan nuroniylar, ota-onalar, uyushmagan yoshlar zalni to‘ldirib o‘tirishdi.

Jinoyatchilikning erta profilaktikasi tarbiyaga, ota-ona va bolalarning o‘zaro munosabatlariga bog‘liq. Shu sababli ota-onalarga “Siz bolalaringiz sizlarga qanday muomala-munosabat qilishlarini istardingiz?”, deb savol berildi. Ular “Bolalarimiz muloyim bo‘lishsa. Ko‘nglimizga qarashsa, o‘qrayishmasa, gap qaytarishmasa”, deyishdi. Ularga “Bolalaringiz shundaymi?”, deb so‘ralganda ularning ko‘pchiligi jim qolishdi. “Qaniydi shunday bo‘lishsa”, deb qo‘ydi bir onaxon sekingina.

Keyin yoshlarga: “Ota-onalaringiz sizlarga qanday muomala-munosabat qilishlarini istardingiz?”, deb savol berilganida ular “Muloyim bo‘lishsa. Ko‘nglimizga qarashsa, o‘qrayishmasa, jerkib tashlashmasa”, deyishdi. Ular ham “Ota-onalaringiz shundaymi?”, deb so‘ralganda jim qolishdi. Faqat bir kollej o‘quvchisi: “Ko‘pincha urishishadi, do‘q qilishadi”, deb qo‘ydi iymanib. O‘smirlar uni unsiz ma’qullashdi.

Shunda ularga:“Ikki avlod bir-biridan mehr istashmoqda. Bunga nima xalaqit berayapti?”, degan aniqlovchi savol berilganida ham jimlik cho‘kdi. Bizningcha bu jimlik ularga bu savol shu paytgacha berilmaganini ko‘rsatadi.

Qalmoq mahallasi raisasi Mahfuza opa va kotiba Sanobarxon bilan suhbatlashildi. Ular hozirgi yoshlar toshbag‘ir, bemehr bo‘lib ketayotganidan nolishdi. Biz buning sababini birga qidirdik:

“Faraz qiling. Siz 10 yoshli o‘g‘lingiz Raufjon tokka ulangan elektr plitaga suv tomizib o‘tirganini ko‘rib qoldingiz. Nima qilasiz?”

Urishaman.

Iltimos, aniqroq ayting.

Aniqrog‘i, “Rauf axmoq!. Kallang bormi? Uyga o‘t qo‘yayapsanmi, kasofat? ...”, deb ayuhannos solib, siltab qo‘lidan suvni tortib olasiz. To‘g‘rimi?

Ha... endi bolani urishmasa bo‘lmaydi-da.

Siz ta’bir joiz bo‘lsa, tarbiyaning eng, so‘nggi, eng oson, eng keskin, eng og‘ir – yuzinchi metodini qo‘llar ekansiz. Undan oldingi 99 ta yumshoq metodini qo‘llamadingiz.

Tarbiya ota-onadan biroz bo‘lsa-da, pedagogik bilimni, mahoratni, qalbni, mehrni talab qiladi. Siz birdan hujum qildingiz. Natijada bolangiz sizdan ham, o‘zidan ham xafa bo‘ldi, ranjidi, sovudi. Buning sababchisi siz deb o‘yladi. Siz o‘sha minutlarda unga do‘st emas, yov bo‘lib ko‘rindingiz. Xo‘mraygan Raufjondan muomalangizga mos- sovuq so‘zlarni tingladingiz. Qahrli ko‘zlaringiz to‘qnashdi. Xafa bo‘ldingiz. Biroz o‘tib, pushaymon ham bo‘ldingiz.

Ikkingizning ham ko‘nglingiz yaralandi.

Nima deyishim kerak edi?

G‘azab – jaholatdan. Agarda siz g‘azabingizni tiyib, “Raufjon, bolam, nima qilayapsan?”, deganingizda, u, avvalo, o‘zi qilayotgan ishga o‘zi baho berardi. Uning gaplarida iqrori aytilardi. Siz bu iqrordan tarbiyaviy maqsadda foydalanardingiz. Undan so‘ng “Bolam, plitaga sovuq suv quyaversang, u buziladi. Chiqarib tashlaymiz. Yangisini sotib olishga anchagina pulimiz ketadi. Yorilib, seni tok uradi. Otib yuboradi, yo badaningni kuydiradi. Tanangda dog‘ qoladi. Bolam, men sening bu ahvolga tushishingni istamayman. Sen xohlaysanmi? Yo‘q. Endi bunday qilmagin-a, bolam. Xo‘pmi?

U “Hmm”, deydi. Shunda siz, “O‘zimning aqlligim. Qani nimani tushunganingni aytib ber. Men xotirjam bo‘lay, xo‘pmi”, deb tushunganini uning o‘z og‘zidan eshitishga erishing. Ana shunda u o‘z qilmishi oqibatlarini anglaydi. O‘z so‘zlari bilan aytib beradi. Albatta, u chala gapiradi. Chunki u oqibatni Sizday to‘liq anglamagan bo‘ladi. Shunda to‘ldirib, xatosini to‘liq tushunishiga yordam bering. Mana, Siz birinchidan, undan xatosiga iqrorni, ikkinchidan, qaytib qilmaslikka va’dani olasiz. Mana shu tarbiya.

Bunga 5 minut vaqt ketadi. Bu 5 minut juda qimmat turadi. Mana shu 5 minut balki qanchalar farzandlarimizni jinoyatdan, xiyonatdan saqlab qolar?

Tarbiya usullarini bilmaydigan nodon ona bir umr javrab, bolasini o‘zidan begonalashtirib, natijaga erishmay o‘tadi. Bir umr “Bolam qaerda, nima qilayapti ekan-a?”, degan xavotirda yashaydi. Chunki bolasidan ko‘ngli to‘q emas. Chunki o‘rgatmagan. Dono ona esa ana shu 5 minutni oltin daqiqalarga aylantiradi. Kafolatli natijaga erishib, bir umr xotirjam yashaydi. Chunki hech bir bola yomon bo‘lib tug‘ilmaydi. Yomon bo‘lishiga biz – kattalar aybdormiz. Aniqrog‘i – bizning tarbiya usullarini bilmasligimiz va qo‘llamaganimiz sabab.

Yoshlar orasidagi, umuman barcha jinoyatlarga sabab – profilaktik, preventiv tarbiya yaxshi olib borilmaganida. Chunki har bir jinoyat bu – taqiqlangan ishni nega taqiqlanganini, oqibatlarini bilmay, yoki bilib qilish demak.

Jinoyatga odamni bolalikdan, kichik-kichik taqiqlarni buza borishdan iborat tajriba olib boradi. Misol uchun, yuqoridagi “Plita voqeasi”ni olaylik. U Raufjonning 1 yil, 2 yil keyingi “eksperimentlari”ni boshlayotganida ham yodiga tushib, o‘ylatadi, to‘xtatadi. Buni tarbiyaning yaxshi 5-6 usullaridan biri desa bo‘ladi.

Nega 1-chisi emas? Chunki metod Raufjon xato qilib bo‘lganidan keyin qo‘llandi. Dono onalar esa bola xato qilmasidan oldin, yaxshi gaplar bilan haftada 1-2 marta turli xatolardan ogohlantirib turishadi. Nodon ona esa birdaniga lovullab ketadi. Afsuski, “bolani yaxshilab do‘pposlasa, mulla bo‘ladi”.“Bolani yaxshilab adabini berib, qo‘rqitish kerak”, degan qarashlar hali kuchli. Aslida bu bizning milliy tarbiyamizga zid. Qobusnoma, “Mahbub ul qulub”, “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitoblarida bolani so‘kish, qo‘rqitish, urish yo‘q. Nega deganda, qo‘rquv bolani ongsiz itoatda, tarbiya esa ongli itoatda saqlaydi. Qo‘rqituvchi bo‘lmagan joyda bola bilganini qiladi. Fosh bo‘lgach, urush-janjal yanada kuchliroq davom etaveradi...

Tarbiya ko‘rgan bolaga uning o‘z fikri, aqli rahbar. Chunki unga ota-onasi nima, nega to‘g‘ri, nima, nega noto‘g‘riligini yaxshilab tushuntirib qo‘ygan bo‘ladi. Har bir vaziyatda buni eslab, o‘ylab ish tutadi.

Qo‘rqitib tarbiyalagan bola “ota-onam bilmasa”, deb ish tutadi. Qilmishi o‘ziga keltirajak ziyonni o‘ylamaydi. Natijada 1-2 qilmishi beshikast o‘tar. Lekin 3-si, kattarog‘i fosh bo‘ladi. 3-qilmish haqorat, so‘kish, urish bilan yakun topadi. Bu ham o‘tadi. Lekin u ota-ona va bolani bir-biridan begonalashtirib, sovutib ketadi. Ikki tomon bir-birining nimalarni o‘ylayotganini bilmay, bilishni ham istamay yashashga o‘tishadi. [2]

Jondor, Shofirkon, G‘ijduvonda “Avlodlar uchrashuvi” ma’rifiy tadbirlari o‘tkazildi. Zalni ikkiga bo‘lib, bir yonga keksalar, ota-onalar, ikkinchi yonga – yoshlar o‘tqazildi. Bu yuzma-yuz, bevosita muloqotga qulay bo‘ldi. Yuqorida aytganimizdek, hayron qiladigan narsa shu bo‘ldiki, uchala uchrashuvda ham ikki avlod bir-biridan nimani kutishi ma’lum bo‘ldi.

Eng ko‘p aytilgan, istalgan, kutilgan so‘z “mehr” bo‘ldi. Bu bizda hayrat uyg‘otdi. Nahotki mehr shunchalar noyob bo‘lsa? Nahotki ikki tomon ham bemehr bo‘lsa? Yo‘q. Ikki tomonda ham mehr berish va olish istagi bor. Unda nega mehr buncha tansiq?!

Buni aniqlashni ota-onalarning kundalik lug‘at boyligidan boshladik. “Mehr” so‘zining ma’nosini so‘radik. Aytganlar “yaxshilik”, “xushmuomalalik”, deyishdi. Albatta, bundan ko‘nglimiz to‘lmadi.Chunki mehr – arabcha so‘zligini, o‘zbekcha “quyosh” deyilishini bilamiz. Quyosh ham yoritadi, ham isitadi. Oy esa yoritadi, isitmaydi. Demak, mehribon odam boshqa odamga mehr berib, uni isitadi, ko‘nglini yoritadi. Shuning uchun mehribonlik, deyiladi. So‘ralgan 354 keksa-yoshlardan 1 o‘qituvchi ayol “mehr” so‘zining ma’nosi “quyosh”ni anglatadi, dedi, xolos. Biz u kishiga esdalik sovg‘a berdik.

O‘rtaga “Aytingchi, kundalik hayotda biz bir-birimizga mehribonmizmi? Marhamat, misollar keltiring”, degan taklifni tashladik. Qatnashchilardan 5-6 nafari mehribonlikka kundalik hayotdan misol keltira olishdi, xolos. Qolganlarning bu so‘zni noto‘g‘ri tushunishlari, yo bilmasliklari ma’lum bo‘ldi. Misol uchun “mehribonlik bu – opajon, ko‘ylagingiz biram o‘zingizga yarashibdi. Chiroyli chiqibdi”; “Bolam, agar 5 ta 5 olsang, senga PSP-2, spinner olib beraman, deyish”, deyishdi. Albatta bu javoblar to‘g‘ri emas (biri – maqtash, biri – va’da) edi.

Shunda biz “Bolalaringiz sizlarga o‘z mehrlarini qanday bildirishmoqda?”, deb so‘radik. So‘ralganlar chuqur o‘yga tolib, jim qolishdi. Faqat bir o‘qituvchi ayol “8 mart kuni o‘g‘lim rasm chizib, tagiga “Dunyodagi eng yaxshi onaga!”, deb yozib sovg‘a qildi”, dedi.

Erkaklar javob berishmadi.

Yoshlarga “Ota-onangiz sizga o‘z mehrlarini qanday bildirishgan?”, deb so‘radik. 2-3 nafar o‘smir qizlar onalari ularni quchoqlab, o‘pganlarini eslashdi. Bir mahalla faoli bolaning boshini silash, yana biri – bolaning yelkasiga sekin qoqib qo‘yish, sovg‘a berish, maqtab qo‘yish kabi usullarini aytishdi.

Tadqiqot natijasida ota-onalar va bolalar orasida bir muammo borligi aniq bo‘ldi. Ya’ni ular bir-birlariga mehribonlik qilishlari kerakligini yaxshi bilishadi. Ammo buni qanday namoyon qilishni bilishmaydi. Oy kabi nur berilayapti, lekin quyosh(mehr)dek issiqlik, nur berilmayapti. Chunki ularga bu maktab, kollej, institutda mehribonlik ko‘nikmalari, kompetensiyalari o‘rgatilmagan, ko‘rsatilmagan. Natijada avlodlar orasida befarqlik uchrab turibdi.

Biz bu muammoning sababini falsafa fanlari doktori, professor Abdullajon Begmatovdan so‘radik. U kishi: “Buning sababi bizda tuyg‘ular tarbiyasiga e’tibor yetishmayotganida. Onalar o‘zlari anglamagan holda chaqaloqni bag‘riga bosib, nafaqat sut, balki mehr ham beradilar. Ota ham erkalaganida mehr beradi. Bu instinkt darajada sodir bo‘ladi. Biroq, bola katta bo‘lganida turmush tashvishlari bilan buni unutishadi. Yo uyalishadi. Buning oqibatida “tuyg‘ular deprivatsiyasi” degan psixologik muammo paydo bo‘ladi.

Olimlarning ta’kidlashicha, 80% talaba-yoshlarda tuyg‘ular deprivatsiyasi kuzatiladi. Afsuski, bu baloning sharpalari bizda ham kuzatilayapti. Misol uchun ba’zida ota yo onasi vafot etganida yig‘lay olmayotgan yigitlarni ko‘rib qolayapmiz. Zudlik bilan bolalarimizning tuyg‘ularini tarbiyalashga kirishishimiz kerak. Hozirgi “internet avlodi” uchun buning ahamiyati kundan kunga oshib borayapti ”.[2]

“Avlodlar uchrashuvlarida” turli fikrlar aytildi. Noan’anaviy pedagogik vaziyatlar yaratildi. Avtoritar tarbiya tarafdori bo‘lgan otalardan biri “Ota farzandiga mehrini bildirmaydi. Uning mehri ichida bo‘ladi. U bolasi bilan gaplashmaydi, lekin uy qurib beradi, to‘y qilib uylantiradi. Mana shu mehr bo‘ladi”, dedi. Bu fikr ma’qullanmadi.

Shuni aytish kerakki, allomalarimizning merosida ham, milliy tarbiyamizda ham bolaga begonadek qarash qoralangan. Chunki o‘g‘ilni uylantirish, uy qurib berish otalarning burchiga aylangan. Lekin burchni bajarish mehr berish degani emas. Chunki mehr bo‘lmasa, bu hadyalarni o‘g‘il sovuq oshdek, hatto “o‘rtog‘imnikiday hashamatli bo‘lmadi”, degan norozilik bilan qabul qilishi mumkin.

Afsuski, bunday misollarni ko‘rayapmiz. Oilada mehrsizlik nimadan paydo bo‘ladi? Milliy tarbiya usullarini bilmaslikdan. Milliy tarbiya fayz bergan oilalarda bu usullar hozir ham yashayapti. Ota-onalarni, ularning oqibatli bolalarini shod-mamnun qilmoqda. Buxorolik 21 yoshli Bobur ismli fotograf yigit buni shunday esladi: “Bolaligimda kechqurunlari otam dasturxon boshida muloyimlik bilan: “Bolam. Falonchining bolasi mana bunday nojo‘ya ish qilibdi. Oqibatda mana bunday bo‘libdi. Sizlar bunday bo‘lmanglar”. “Falonchining bolasi mana bunday yaxshi ish qilibdi. Natijada mana bunday bo‘libti. Mana shunday yaxshi ishlarni qilinglar”, deb, biz bilgan odamlar, mahalladoshlar hayotidan misollar keltirib, nasihat qilar edilar”, deb esladi.

G‘ijduvondagi “Avlodlar uchrashuvi”da “Talqin” texnologiyasidan foydalanildi. Unda shoirning “Bolam derman”, degan bir ajoyib tarbiyaviy she’ri pedagogik talqin qilindi:

Ota-ona degay dildan: bolajonim, bolam derman, Umidim g‘unchasi, so‘lmas gulistonim, bolam derman.

Ato qildik hayot sizga, bo‘lar sizdeb, qanot bizga, Ilohim ko‘rmagay hech kim pushaymonim, bolam derman.

Ko‘p gapirsak, qovoq solmang, quloq soling, qoqilmaysiz, Yiqilsangiz chekar faryod mening jonim, bolam derman.

Ota-onaga tik boqmoq, o‘g‘il-qizga gunoh ammo, Ko‘zingiz qahridin holi parishonim, bolam derman.

[2] Falsafa fanlari doktori, professor A.Begmatov bilan 2017 yil 28 noyabr kuni bo‘lib o‘tgan suhbatdan.

Ota-ona chekib zahmat, mehr kutgay, qilib orzu,

Degay: “O‘g‘il-qizim sham’i shabistonim” bolam derman.

Bolam bor – maqsadim bordir, xudodin istagim yordir, Otam-onam deguvchi eng qadrdonim, bolam derman.

Bu g‘azalga olib ilhom, buxoriy mashvaratlardin, Muhammad ayladim ehson, dostonim “Bolam derman”.

“Mehrsizlik dastidin ko‘ngli yaroman, naylayin”, degan mashhur ashula bor. Bunda shoir mehrsizlikdan ko‘ngli yaralanganidan noliyapti. Bunda armon bor. Ya’ni biz “mehrsizlik bu ma’naviy begonalashuvga olib keladi”, deb qo‘yarkanmiz. Vaholanki mehrsizlik odamiylik javhari – ko‘ngilni yaralab, sovutar ekan! Bu “ma’naviy qish” uylarimizga ham kirib qolmadimikin? Aks holda nega so‘rovlarimizga kattalar ham yoshlar ham: “Muloyim bo‘lishsa. Ko‘nglimizga qarashsa, o‘qrayishmasa, urishib tashlashmasa, gap qaytarishmasa”, degan istaklarini aytishdi?

Odam bir umr boshqalardan mehr (issiqlik, yorug‘lik) kutadi. Agar u uyda bo‘lmasa, ko‘chadan qidiradi, topadi. Ota-ona o‘g‘il-qizining, o‘g‘il-qiz – ota-onasining ne xayol, tashvish, reja, g‘oyalar bilan yashayotganini bilmasa, so‘ramasa, bu xonadonga “ma’naviy qish” kirganga o‘xshaydi. Mehr isitmasa, yoritmasa, bu uyga bahor kelmaydi. Begonalar oilasi bo‘lib qoladi.

“Avlodlar uchrashuvlari”dagi pedagogik eksperimentlar natijasida ikkala avlod ham “Mehribon yigit-qizdan jinoyatchi chiqmaydi” degan yakdil xulosaga kelishdi.

Demak, endi avvalo, ziyolilar, nuroniylar, mahalla faollari, ma’naviyat va ma’rifat xodimlari, o‘qituvchilar mehribonlik, mehr-oqibat haqida maxsus suhbatlarni kuchaytirishimiz zarur ekan. Buning samarasi Shofirkonda yaqqol ko‘rindi. Kollej o‘quvchisi Malohat qo‘l ko‘tarib, so‘z so‘radi. Unga so‘z berildi. Malohat ko‘zida yosh, ovozi titrab: “Men bu tadbirdan juda ta’sirlandim. Hozir shu yerdan chiqib, to‘g‘ri borib, dadam-oyimni quchoqlab o‘paman”, dedi.

Ikki avlod beixtiyor... o‘rinlaridan turib, uni uzoq olqishladilar.... Biz ham tadbirni shu joyida... yakunladik.

Jondor–Shofirkon–G‘ijduvon

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jinoyat. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2002. 604-bet.
2. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi (Tuzuvchilar: K.Xoshimov, S.Ochil). – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 464 b.
3. Falsafa fanlari doktori, professor A.Begmatov bilan 2017 yil 28 noyabr kuni bo‘lib o‘tgan suhbatdan.
4. Quronov M. Milliy tarbiya. –Toshkent, “Ma’naviyat”, 2007.